

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIY FANLAR FAKULTETI
IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI
«JOY NOMLARINI O‘RGANISHNING GEOGRAFIK
JIHATLARI» (Bulung‘ur tumani misolida)
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta‘lim y o‘nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Boymurodov Zoir

ILMIY RAHBAR: ass. Badalov O‘B.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
_____sonli bayonnoma «__»_____2013 yil

Samarqand-2013

MUNDARIJA

Betlar

KIRISH.....	3
I.BOB. BULUNG'UR TUMANINI IJTIMOY - IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI	
1.1. Tumanni iqtisodiy geografik o'rnini baholash.....	5
1.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.....	9
II.BOB. JOY NOMLARINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
2.1. Hududlardagi joy nomlarining tadqiqot usullari.....	11
2.2. Iqtisodiy - ijtimoiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlar.....	14
2.3. O'zbekistonda joy nomlarini o'rganish masalalari.....	17
III.BOB BULUNG'UR TUMANIDA JOY NOMLARINI O'RGANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI	
3.1. Bulung'ur tumanida joy nomlarining shakllanishida mahalliy geografik terminlar roli.....	20
3.2. Tuman hududidagi ko'cha, qishloq va aholi manzilgohlaridagi joy nomlarni o'rganishning geografik jihatlari.....	26
XULOSA.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda mamlakatimizda geografik nomlarni chuqur, ilmiy asosda o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, 2004 yili O'zbekiston Respublikasida toponomik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining ish boshlashi, ushbu komissiya hududiy bo'linmalarining faoliyat yuritishlari, shuningdek, geografik nomlar haqidagi Qonun loyihasining tayyorlanishi mazkur masalaning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuning maqsadi. Bulung'ur tumanida joy nomlarni o'rganishda muayyan joy nomlarni, ularning ma'nosi, kelib chiqishi, talaffuzi masalalarini hamda shu hududga oid manbalar asosida o'rganishdan ibratdir.

Mavzuning vazifasi. Tuman hududidan to'plangan ma'lumotlar asosida geografik joy nomlarini yig'ishda kartografik usulidan kengroq foydalanish, tumandagi joy nomlarining qanday ma'no anglatishini, rasmiy hujjatlarda, haritalarda va ommaviy axborot vositalarida qanday atalishi, eski nomining boryo'qligi, shu joydagi aholi, uning milliy tarkibi, qanday urug'lar yashagani yoki yashab kelayotgani, ular qayerdan ko'chib kelgani, aholi shu nomni qanday talaffuz qilishi, aholi punktining qachon paydo bo'lganligi, mahalliy kekxa kishilardan nomning xalqona talqinini, shevada qanday atalishi, joyning tabiiy geografik xususiyatlari, shu joyda ko'p tarqalgan o'simliklar, hayvonlar va foydali qazilmalar, shu hududda sodir bo'lgan muhim tarixiy voqealar, aholining kasb-hunari, madaniy hayoti, urf-odatlar, shu joy yaqinida yirik ob'ektlar mavjudligi, bu joyda qanday mashhur kishilar yashaganligi, joy to'g'risida afsonalar, rivoyatlarning mavjudligi, joy xalqona talqinining ilmiy adabiyotlarda hamda toponomik lug'atlarda berilishi bilan taqqoslab ko'rish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Ishni ob'ekti va predmeti. Bulung'ur tumani misolida joy nomlarini o'rganish, hududdagi qishloqlar, shaharchalar, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa ob'ektlarning nomlarini turlarga bo'lish: bular, gidronimlar, oykonimlar, oronimlar, agronimlar, urbanonim (shahar ichidagi ob'ektlarning nomlari),

godonimlar (ko'cha nomlari), dromonimlar (yo'llarning nomlari), tarixiy obidalarining nomlari, paragagonimlarni (tashkilot va korxona nomlari) o'rganishdan ibratdir.

Jumladan, oykonimlarning katta-kichikligi belgilar (geometrik va harfli belgilar) usuli, bir xil turdagi, bir xil tilga tegishli yoki bir xil toponomik terminlar yordamida paydo bo'lgan toponimlar areallar usuli, muayyan toponomik hodisalarning takrorlanishi biror joyga tegishli diagrammalar usuli, keng hududlardagi toponomik hodisalar sifatli va miqdorli rang usullari, geografik nomlarning muayyan hududlar bo'yicha tarqalishi nuqtalar usuli, muayyan turdagi nomlarning Bulung'ur tumani bo'yicha tarqalishini karta diagramma va kartogramma usuli, geografik nomlarning ko'chish hodisasini harakatdagi chiziqlar usuli yordamida ko'rsatilishi sxematik kartada aks ettirilgan.

Umuman toponomika til haqidagi fanlar tizimiga mansub, fanlardan biri, lingvistikaniig bir tarmog'idir. Biroq joy nomlari boshqa so'zlardan farq qiladi. Ular muayyan hududda tarkib topadi, geografik qonuniyatlar, tushunchalari va terminlarni (rel'yef shakllari, daryo tarmoqlari, ko'llar, muzliklar, o'simliklar va hayvonlar nomlarini, foydali qazilmalarni) aks etgiradi. Shuning uchun toponomika geografiyaning ajralmas qismi hisoblanadi, shu o'rinda toponimlar uzoq yashaydi. Ularda har xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarni nomlari aks etgan bo'ladi, shuning uchun bu fan tarix fani bilan ham bog'liqdir.

Yuqoridagi metodlar joy nomlarini ko'proq geografik nuqtai nazardan tadqiq qilishda ishlatiladi. Tarixiy yoki tilshunoslik nuqtai nazarda tadqiqotlar olib borganda boshqa metodlardan ham foydalaniladi.

Umuman olganda, kichik hududlardagi geografik nomlarni o'rganishda yuqoridagi metodlarning bir nechtasini qo'llab tadqiq etish ko'proq va mukammalroq ma'lumotlar to'plash imkonini beradi.

I.BOB. BULUNG'UR TUMANINI IJTIMOIIY - IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

1.1. Tumanni iqtisodiy geografik o'rnini baholash

Bulung'ur tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil topgan bo'lib, viloyat sharqiy qismida joylashgan tumandir. Uning yer maydoni 0,76 ming kv.km.ni tashkil etadi. Tuman shimolda Jizzax viloyatining G'allaorol tumani, sharqda Baxmal tumani, g'arbda Samarqand viloyatining Jomboy tumani, janubiy-g'arbda Tayloq tumani, janubda Urgut tumani va janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Tuman aholisi 154,3 ming kishi (2012 y). Ma'muriy jihatdan Tuman bo'yicha bugungi kunda 7 ta QFY va 50 ta MFY mavjud bo'lib, ushbu mahallalarning barchasi milliy mafkuramizga xos nomlar bilan atalib kelinmoqda, ushbu mahallalarda 150 ta qishloq va 84 ta ko'chalar mavjud.

Bulung'ur tumani hududiy joylashuviga ko'ra, viloyatning sharqiy qismida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan. Tuman qadimdan "Buyuk ipak yo'li" ning tugunida joylashganligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratganligi tarixdan ma'lumdir. Hozirgi paytda ham bu yerni mahalliy va xalqaro avtomobil, temir yo'l yo'llarining kesib o'tganligi tumanni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tumanning Samarqand shahrigacha bo'lgan masofa 28 km.ni tashkil etadi.

Bulung'ur tumani hozirgi kunda 2012 yil 1 yanvar holati bo'yicha 7 ta qishloq fuqarolari yig'inlari, 3 ta shaharcha (Sohibkor, Kildon va Bog'bon, tashkil topgan yil 2009 y), 143 ta qishloq aholi punktlari mavjud (jadval-1). Tuman asosan qadimgi tumanlar guruhiga kiradi.

Aholisi, asosan o'zbeklar, shuningdek rus, tojik, ukrain, tatar va boshqa millat vakllari ham yashaydi. 1km² ga 157 kishi to'g'ri keladi. Shaharliklar 23,2 ming kishi, qishloq aholisi 93,6 ming kishini tashkil etadi.

**Bulung'ur tuman hududidagi qishloq fuqarolar yig'inlarining
RO'YXATI**

jadval-1

T/R	Qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari nomi	Qachon o'zgartirilgan	
		Sana, oy va yil	Qaror raqami
1	Alisher Navoiy qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
2	Beshqo'ton qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
3	Kildon qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
4	Kulchabiy qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
5	Soxibkor qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
6	O'rtabuloq qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
7	Fozil Yo'ldosh qishloq fuqarolar yig'ini	29 mart 1990 y	№21-Q
8	Amir Temur mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
9	Avliyo Parpi mahallasi	13 avgust 2007 yil	№ 128-Q
10	Beshkuvi mahallasi	13 avgust 2007 yil	№ 128-Q
11	Beshko'ton mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
12	Bog'bon mahallasi	13 avgust 2007 yil	№ 128-Q
13	Bedana mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
14	Bulung'ur mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
15	Bulung'ur ariq mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
16	Gulzor mahallasi	13 avgust 2007 yil	№ 128-Q
17	Guliston mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
18	G'o'bdin mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
19	Do'stlik mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
20	Zarafshon mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
21	Istiqlol mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
22	Kaptarxona mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
23	Birlik mahallasi	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
24	Kattaqishloq-1 mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
25	Kildon mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
26	Kichikkildon mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
27	Qirqshodi mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
28	Qo'ng'iro't mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q

29	Mexrjon mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
30	Mextar mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
31	Mingtepa mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
32	Mingchinor mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
33	Mo'g'ol mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
34	Navbahor mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
35	Nebo'sa mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
36	Niyozmat mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
37	Nurli yo'l mahallasi	28 mart 2008 yil	№130-Q
38	Oqtepa mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
39	Oqtosh mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
40	Olmazor mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
41	Sayiltepa mahallasi	15 mart 2010 y	№71-Q
42	Samarqand mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
43	Sarqpichoq mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
44	Soxibkor mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
45	Suluvqo'rg'on mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
46	Mirzo Ulug'bek mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
47	O'roqli mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
48	Xo'jabachcha mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
49	Xo'jamazgil mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
50	Changal mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
51	Changal-1 mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q
52	Changalpoyon mahallasi	29 mart 1990 y	№21-Q

1.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

Tumanning tabiiy sharoiti, yer usti tuzilishi, shimol hamda shimoli sharq tomonlarini tog'lardan iboratligi ham muhim ahamiyatga ega. Mintaqa rel'efi, umuman olganda, uning ishlab chiqarish kuchlari joylashtirish, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishatirish uchun qulaydir. Tuman hududi Zarafshon vohasining poleozoy erasining ohaktosh, gips va kristalli slaneslaridan tashkil topgan jinslardan iborat. Bu asosiy rel'ef sistemasida o'ziga xos tabiiy va landshaft xususiyatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tumanning tekislik qismi Zarafshon daryosi sohillarida (aholi manzilgohlari, qehqonchilik turlarini tashkil etish) joylashgan.

Bulung'ur tumani Turkiston tizmasining janubiy-g'arbidagi tog' oralig'i botig'ida joylashgan. Yer yuzasi tekislik, sharqiy qismining G'o'bdin tog'i egallagan. Yer usti tuzilishi tog'oldi tekisliklardan, adirlar, past tog'lardan iborat bo'lib, mutloq balandligi 800-1000 metrni tashkil etadi. Tumanining iqlimi keskin kontenintal bo'lib, yozda uzoq davom etadigan issiq va quruq, qishda esa mo'tadil sovuq havodan iborat. Iqlimning kontenintaligi bir kunda va yil fasillari mobaynida havoni tez-tez almashinib turishi orqali namoyon bo'ladi. Yanvarning o'rtacha temperaturasi $-0,3^0$, iyulniki $+25,5^0$ ni hamda yillik yog'in miqdori 377-467 mm.ni tashkil etadi. Vegetasiya davri 210-230 kundan iborat. Adirlarda Axtambuloq, Karabkibuloq, Mirzabuloq kabi buloqlar bor. Tuman hududidan Bulung'ur, Yangibesh, Qoraariq, Qorasuv, Polvonariq, Tuyatortar, Oqtepa, Oqariq kabi ariq va kanallar oqib o'tadi. Tuman hududida qumloq va bo'z tuproqlar tarqalgan. O'simliklardan shuvoq, efemer, efemeroidlar o'sadi. Hayvonat olamida bo'ri, chiyabo'ri, tulki, bo'rsiq, parandalardan tustovuq, kaklik, bedana yashaydi. Tumanni tekislik qismidagi yog'in va issiqlikning taqsimlanishi birmuncha o'zgaruvchandir. Samarqand meterologik markazi ma'lumotiga ko'ra, yil bo'yi quyoshning yoritilishi 2877 soatga teng bo'lib, uning 70 foizi may oyidan oktyabrgacha oylarigacha tog'ri keladi. Bu esa tumanda dehqonchilikning o'ziga xos turlarini rivojlantirish imkoniyatini tug'diradi. Hududning g'arbiy qismida 300-450 mm., sharqiy va

janubi - sharqiy qismlarida o'rtacha 650-850 mm ga yaqin yog'in yoqadi. Qish fasli yumshoq kelishi bilan birga ayrim yillari suvuq kunlar uzliksiz davom etadi. Tuprog'i asosan bo'z tuproq. Tuman yerlarida asosan tepik bo'z, alliyuvial o'tloq, daryo sohil bo'ylarida o'tloq tuproqlar tarqalgan. Tuproqlar iqlim sharoiti va qishloq xo'jaligida foydalanish bo'yicha tuman hududi 2-qisimga bo'linadi. Birinchisi sug'oriladigan yerlar tuproqlari. Ikkinchisi G'o'bdin tog'i va tog' tizmalaridan iborat lalimikor yerlar va yaylov tuproqlar tashkil qilgan.

O'simliklardan Zarafshon daryosi sohili qismida terak, jiyda, tol, turong'il, yulg'un, oqtikon va to'qay o'simliklari o'sadi.

II.BOB. JOY NOMLARINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Hududlardagi joy nomlarining tadqiqot usullari

Har bir kishining o'z nomi-ismi bor. Bir xil bo'lgan kishilar ya'ni, adashlar ko'p bo'lgan holda, ularni laqab bilan farq qilganlar. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farq qilishga xizmat qiladi. Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb atalgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda geografik nomlarni chuqur, ilmiy asosda o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, 2004 yili O'zbekiston Respublikasida toponomik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining ish boshlashi, ushbu komissiya hududiy bo'linmalarining faoliyat yuritishlari, shuningdek, geografik nomlar haqidagi Qonun loyihasining tayyorlanishi mazkur masalaning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Geografik nomlarni o'rganishda muayyan kichik bir hududdagi nomlarni, ularning ma'nosi, kelib chiqishi, talaffuzi masalalarini mahalliy aholi ishtirokida, shu hududga oid manbalar asosida o'rganish yaxshi samara beradi. Kichik hududlardan to'plangan ma'lumotlar ishonchli, mukammal bo'ladi. Bunday hududlarda geografik joy nomlarini yig'ishda kartografik usulidan kengroq foydalanish kerak. Shuningdek, toponomik anketa tarzida ko'p savollarga javob topsa bo'ladi. Bunda asosan joy nomining qanday ma'no anglatishini, rasmiy hujjatlarda, xaritalarda va ommaviy axborot vositalarida qanday atalishi, eski nomining bor-yo'qligi, shu joydagi aholi, uning milliy tarkibi, qanday urug'lar yashagani yoki yashab kelayotgani, ular qayerdan ko'chib kelgani, aholi shu nomni qanday talaffuz qilishi, aholi punktining qachon paydo bo'lganligi, mahalliy keksa kishilardan nomning xalqona talqinini, shevada qanday atalishi, joyning tabiiy geografik xususiyatlari, shu joyda ko'p tarqalgan o'simliklar, hayvonlar va foydali qazilmalar, shu hududda sodir bo'lgan muhim tarixiy voqyealar, aholining kasb-

hunari, madaniy hayoti, urf-odatlar, shu joy yaqinida yirik ob'ektlar mavjudligi, bu joyda qanday mashhur kishilar yashaganligi, joy to'g'risida afsonalar, rivoyatlarning mavjudligi, joy xalqona talqinining ilmiy adabiyotlarda, toponomik lug'atlarda berilishi bilan taqqoslab ko'rish masalalariga alohida e'tibor berish kerak.

Joy nomlarining kartotekasi tuzilgandan so'ng ularning turlari bo'yicha izohlanishi maqsadga muvofiq. Binobarin, kichik hududlar - qishloqlar, shaharchalar, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa ob'ektlarning nomlarini quyidagi turlarga bo'lish lozim: gidronimlar, oykonimlar, oronimlar, agroonimlar, speleonimlar, drimonimlar (yunoncha "drimos" -o'rmon), urbanonim (shahar ichidagi ob'ektlarning nomlari), godonimlar (ko'cha nomlari), agronim (yunoncha "agora" - maydon), dromonimlar (yo'llarning nomlari), tarixiy obidalarining nomlari, paraga-gonimlar (tashkilot va korxona nomlari).

Kichik hududlarning nomlarini yig'ish va o'rganishda joy nomlarini yig'ish so'roqligidan foydalanish zarur. Nomlarni to'plash va o'rganishda toponomikaning tadqiqot metodlaridan keng foydalaniladi. Bu metodlar quyidagilar:

1. Etimologik metod. Bu metod yordamida geografik nomning qanday ma'no anglatishi, nomga asos bo'lgan so'z yoki topotermi aniqlanadi, ya'ni etimologik tahlil qilinadi. Etimologiya ilmiy va xalqona turlarga bo'linadi. Xalqona etimologiya geografik nomning mahalliy xalq talaffuzida aytilishi, nomning xalqona talqin etilishi bo'lganligi uchun unda turli afsonalar, rivoyatlar, hikoyalar, o'xshatishlar, orzu-istaklar bo'lishi mumkin. Shuning uchun xalqona etimologiyani qadimgi qo'lyozma manbalar, mahalliy ziyolilar va keksalar, hududga oid chop etilgan ilmiy adabiyotlar bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

Ilmiy etimologiya esa shu hududga oid ilmiy manbalar, tadqiqot ishlari, toponomik asarlar va izohli lug'atlarga asoslanadi.

2. Tarixiy metod. Ushbu metod yordamida o'rganilayotgan hudud joy nomlari qadimda qanday atalganligi, tarixiy davrlar mobaynida qanday o'zgarishlarga uchraganligi, boshqa qanday tarixiy nomlar bo'lganligi, nomning kelib chiqishiga qanday tarixiy voqyealar sabab bo'lganligi aniqlanadi.

3. Areal metodi. Mazkur metod orqali muayyan hududda bir xil voqeyalik, hodisaning tarqalishi aks ettiriladi. Shu bois, bir xil tip guruhiga oid joy nomlari, bir xil topoformant yoki muayyan guruh toponomik terminlar yordamida yasalgan joy nomlari biror arealni hosil qiladi.

4. Statistik metod. Ushbu metod yordamida ma'lum bir hududda geografik nomlarning miqdorini, qo'llanilish darajasini, takrorlanishini ko'rsatish mumkin. Muayyan bir hududda geografik nomlarning biror turlari miqdorini bilish katta ahamiyatga ega. Bunda nomlarning takrorlanish darajasi va uning miqdoriy faolligini bilib olish imkoniyati tug'iladi.

5. Taqqoslash usuli. Mazkur metod yordamida joy nomlari bir-biriga taqqoslanib o'rganiladi.

6. Kartografik metod. Har qanday geografik ob'ektlarning nomlari avvalo xaritada aks etadi. Shuning uchun toponomikada ushbu metoddan keng foydalaniladi. Ma'lumki, xaritashunoslikda bir qancha metodlar bo'lib, toponomikada ularning ko'pchiligi qo'llaniladi.

Jumladan, oykonimlarning katta-kichikligi belgilar (geometrik va harfli belgilar) usuli, bir xil turdagi, bir xil tilga tegishli yoki bir xil toponomik terminlar yordamida paydo bo'lgan toponimlar areallar usuli, muayyan toponomik hodisalarning takrorlanishi biror joyga tegishli diagrammalar usuli, keng hududlardagi toponomik hodisalar sifatli va miqdorli rang usullari, geografik nomlarning muayyan hududlar bo'yicha tarqalishi nuqtalar usuli, muayyan turdagi nomlarning biror hudud (masalan, O'zbekiston viloyatlari yoki tumanlari) bo'yicha tarqalishini kartadiagramma va kartagramma usuli, geografik nomlarning ko'chish hodisasini harakatdagi chiziqlar usuli yordamida ko'rsatilishi mumkin.

Kichik hududlardagi toponomik tadqiqotlarda bu kabi usullarni birga qo'llash yaxshi samara beradi.

7. Tasviriy metod. Ushbu metod yordamida o'rganilayotgan hududdagi geografik nomlarning hozirgi holati, xususiyatlari toponimning paydo bo'lishi va tuzilishi jihatidan o'rganiladi.

Yuqoridagi metodlar joy nomlarini ko'proq geografik nuqtai nazardan tadqiq qilishda ishlatiladi. Tarixiy yoki tilshunoslik nuqtai nazarda tadqiqotlar olib borganda boshqa metodlardan ham foydalaniladi.

Umuman olganda, kichik hududlardagi geografik nomlarni o'rganishda yuqoridagi metodlarning bir nechtasini qo'llab tadqiq etish ko'proq va mukammalroq ma'lumotlar to'plash imkonini beradi.

2.2. Iqtisodiy - ijtimoiy turmushni aks ettiruvchi oykonimlar

Bugungi kunda kishilar o'zlari yashaydigan ko'cha, mahalla, qishloq yoki shaharlarning nomlanishiga, mavjud nomlarning ma'nosiga, to'g'ri aytilishi va yozilishiga katta qiziqish hamda e'tibor bilan qaramoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning joylarga nom tanlash, ya'ni milliy toponomik madaniyatni qayta tiklanmoqda. Bu haqda Prezident I.A.Karimov 2008 yilda chop etilgan "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: "Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'yman, Qo'qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalombor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi".

Toponimlar orasida amaliy ahamiyati bo'yicha oykonimlar alohida o'rin egallaydi. Oykonimlar deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi maskanlari nomlari tushuniladi. Aholi maskanlari ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarixiy kategoriya bo'lib, ularning nomlanish jihatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Oykonimlarni o'rganishda ularni guruh-guruhlarga bo'lib, tasniflash usuli keng tarqalgan. Aholi maskanlarini asosan ikki yirik guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar.
2. Iqtisodiy- ijtimoiy oykonimlar.

Tabiiy-geografik oykonimlar, o'z navbatida, suv bilan bog'liq, relyefni aks

ettiruvchi, o'simlik va hayvonot dunyosi nomidan olingan oykonimlarga bo'linsa, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar -kishilar ismidan, urug'-qabilalar nomidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalardan olingan oykonimlarga bo'linadi. Mazkur oykonimlarni chuqurroq tahlil etish maqsadida yana kichik guruhlariga bo'lish mumkin. Quyida oykonimlar misolida iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi batafsilroq to'xtalib o'tiladi.

Hududlarda qadimda hunarmandchilik rivojlangan tarmoqlardan biri bo'lgan. Bu soha bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari ko'proq mahalla va ko'chalarga berilgan. Qishloq va shaharlarida *Astarbof, Baxmalbof, Bo'zachi, Bo'yrabof, Degrez, Yo'rmado'z, Kulolon, Ko'nchilik, Parpashabob, Pichoqchi, Po'stindo'z, Tandirchi, Ustalar, Qamchinbof* kabi joy nomlari qayd etiladi.

O'zbekistonda ham kishilarning iqtisodiy turmushida savdoning ahamiyati yuqori bo'lgan. Savdo mazkur hududning gullab yashnashiga ta'sir o'tkazgan. Shuning uchun "bozor" iborasi oykonimlar tarkibida ko'p tarqalgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan *Dehqonobod, Doimobod Mexnatobod, Paxtakor, Paxtachi, Paxtaqaynar, Paxtauchun, Piyozchilik, Pillakor, G'allakor, Bodomzor, Bexizor* kabi qishloqlar mavjud.

Hozirgi kunda tumanda takroriy va shaxs nomlarini o'zgartirish jarayoni davom etmoqda. Berilayotgan takliflarda ham iqtisodiy turmushni aks ettiruvchi variantlar asosiy o'rinni egallaydi. Tuman toponomik komissiyasiga joy nomlarini o'zgartirishga berilgan takliflar quyidagicha asoslandi:

O'tgan 3 oy davomida komissiya Bulung'ur tumani hokimligiga komissiya tarkibini qayta ko'rib chiqilish taklifi kiritildi va 2012 yil 27 dekabr 2/986 sonli tuman hokimligi yigilish bayoni bilan «Geografik nomlash va qayta nomlash» bo'yicha tuman ishchi guruhi tarkibi tasdiqlangan. Komissiya hududdagi jami qishloq nomlarini qayta o'rganib chiqib quyidagi takliflarni ishlab chiqqan.

1. Kildon QFY hududidagi «Quvvat» qishlog'iga taklif tayyorlash.

2. Alisher Navoiy QFY hududidagi «Esonturdi», «Olomon», «Gushtup», «Mullaesa», «Omonturdi», «Xurmi» qishloqlariga taklif tayyorlash.

3. Fozil Yo'ldosh QFY hududidagi «Nebusa» qishlog'iga taklif tayyorlash.

4. Beshqo'ton QFY hududidagi «Qazarma 3681», «Razyezd 19», «Razyezd 20» «Yuqori Paxtaboshi» «Qiyon» qishloqlariga taklif tayyorlash.

5. Qulchabiy QFY hududidagi «Kattaquyonchi», «Kattajonxo'roz», «Ochamayi» «Yomonquyonchi» «G'ayr» qishloqlariga taklif tayyorlash.

6. Bulung'ur shahridagi 3 ta ko'cha ya'ni, N.Juraboyev, O.Shomurodov, S.Ibragimov kabilarga yangi nom berish taklifini kiritish.

7. Tig'iriy qishlog'i 2 ta joyda (Fozil Yo'ldosh QFY, Sohibkor QFY hududlarida) bo'lganligi uchun 1 tasiga boshqa nom berish.

Tuman bo'yicha boshqa barcha qishloq nomlari o'rganilib chiqildi va ularning nomlanishi bevosita shu joyning geografik, tarixiy va etnotoponomik, oronomik, gidronomik va urug' nomlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ammo tuman toponomik komissiyasi tomonidan ishchi guruhga yangi nomlar berish va qayta nomlash bo'yicha takliflar berilmadi. Shuningdek, komissiya Bulung'ur shahridagi ko'chalarga qo'yilgan yangi nomlar yozilgan (tablichka) panochalar, QFY va qishloq joylariga kirish va chiqishda nomlarni qo'yish masalalari xanuzgacha oxiriga yetmagan. Bu joylarning tabiiy geografik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan nom hisoblanadi. Taklif etilayotgan nomlar toponomika fani qonuniyatlariga mos tushadi. Ob'ektlarni nomlashda toponomik qonuniyatlar talablarining bajarilishi muhim. Fandagi **toponomik pozitivlik** qonuniyatiga ko'ra, nomlar oykonimlarning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, ya'ni real voqyea-hodisalarni o'zida aks ettirishi zarur. Ko'pchilik geografik nomlarning vujudga kelishida oddiy geografik terminlar, so'zlar asosiy rol o'ynaydi, ularning oldiga yoki orqasiga bir ot, sifat, son yoki qandaydir qo'shimcha qo'shilsa, ob'ektlarning xususiyatlarini aks ettiradigan toponimlar hosil bo'ladi.

2.3. O'zbekistonda joy nomlarini o'rganish masalalari

Jamiyat tuzumidagi uzgarishlar, ya'ni ijtimoiy tuzumning o'zgarishi, davlatning milliy siyosati hududlarning qaysi davlatlarga mansubligi, davlat siyosati, mamlakatlarda qaysi xalq qanday mavqeyga egaligi, teografik kashfiyot, tadqiqotlariing kimlarga mansubligi, geografik atama va nomlarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning hududida geografik nomlarning ko'pgchiligi o'zgardi va o'zgarmoqda. O'zbekistondagi geografik ob'ektlarga Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyin sobiq Sovet davrida qo'yilgan nomlar qayta ko'rib chiqilib, ularga o'zlariinng qadimiy tarixiy nomlari qaytarilmoqda, mustaqillik bilan bog'lik yangi nomlar paydo bo'lmoqda.

Geografik atama va nomlar ta'limi "O'zbekiston Davlat tili" (1989 yil 21 oktyabr) va "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy- hududiy tuzilish, toponomik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal qilish to'grisida" (1996 yil 21 dekabr) haqidagi qonunlarni hayotga tadbiq etish zamon talablariga javob beradigan geografiya o'qituvchilarini tayyorlash munosabati bilan katta amaliy ahamiyatga egadir, 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'grisida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qabul qilindi. Davlat tili haqidagi qonun (yangi tahrirda) tasdiqlandi, uning 22-moddasida shunday deyilgan: "Respublikaning ma'muriy hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik ob'ektlari nomlari Davlat tilida aks ettiriladi", "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida" qonunida ta'qidlanishicha ushbu qonun ma'muriy hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qisimlariga, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, tabiiy geografik, geologik va boshqa ob'ektlarga nom berish va ularni nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi.

1996 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponomik ob'ektlarni tartibga solish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda joylarda toponomik ob'ektlarning eski tuzumga xizmat qiladigan, xalqimizning tarixiy milliy ananalariga bogliq bo'lmagan nomlarning saqlanib turganligi qoralandi va boshqa nomlar bilan almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgalandi.

Dunyoda besh yarim mingdan ortiq tillar mavjud. Ularning hammasida geografik nomlar bor. Ularning hammasida geografik nomlarni yozishga doir qoidalar bor. Bu qoidalarni aloqa, transport, tashqi savdo, diplomatiya xodimlari, tadqiqotchilar bilishi shart. O'zbekistonda geografik nomlarni to'g'ri yozish, yozilish qoidalari maxsus atamashunoslik qo'mitasida ishlab chiqilgan. O'zbek tilida darsliklar, ilmiy ommabop kitoblar, kundalik matbuot, radio va teleeshittirishlar orqali turli xildagi minglab joy nomlari haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Bu nomlarni o'zbek tilida qanday yozilishi va bu masalaning to'g'ri hal etilishi madaniyatimizning muhim bir sohasidir, ammo nomlarni to'g'ri yozish ancha murakkab ish. Chunki joy nomlari bir tomondan tarixga, bir tomondan geografiya va tilshunoslikka tegishli bo'lib, qisman etnografiya, arxeologiya, botanika va boshqa sohalarga bog'liq. O'zbekiston hududida toponimlar juda murakkab. Chunki mamlakatda turk va eron tillari bir biri bilan qo'shilib ketgan. O'zbekistondagi ba'zi shaharlar bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, uzoq yillar mobaynida geografik nomlar o'zgarib bir shakldan ikkinchi shaklga o'tgan. O'zbekiston hududida arab, eron, mo'g'ul hatto sanskrit tilida uchraydigan nomlar uchraydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda geografik nomlar 4 guruhga ajratiladi:

- ***Eng qadimgi nomlar (Tarixiy shaharlar nomi. Masalan, Samarqand, Buxoro va h.)***
- ***Eron tilidan kelib chiqqan nomlar (masalan, dug'oba, tuzkon va b.).***
- ***Turkiy tilidan kelib chiqqan nomlar (Sarisuv)***
- ***Slavyan tilidan kelib chiqqan nomlar.***

O'zbekiston hududidagi geografik nomlarning kelib chiqishi, etimologiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Toponomikada aniq va asosli izohlar bilan taxmin va farazlar ham ko'p. Shuning uchun ushbu mavzuda mamlakatimizdagi geografik nomlarni saralab kundalik matbuot va o'rta maktabda ko'proq tilga olinadigan nomlarni izohini keltiramiz.

Amudaryo - uning dastlabki nomi «Ukus» o'zbek tilida *suv daryo* deb tarjima qilinadi. Qadimgi olimlar uni «oks» tarzida yozib g'arb dunyosiga ma'lum qildilar. Shundan «oks» Amudaryoning yunoncha nomidan paydo bo'ldi. Ushbu daryo qadimda «arang», o'rta asrlarda «jayxun», «omul», «vaxshu» va boshqa nomlar bilan yuritilgan. Mo'ynoq Orol dengizi janubidagi shahar. Mo'yin - bo'yin, oq aslida - aks kichik so'zlardan iborat bo'lib kichik bo'yin ma'nosini bildiradi. Ohangaron O'zbekistonda shu nomda shahar daryo plato mavjud. Bu joyda o'rta asrning boshlarida temirchilik rivojlangan bo'lib, temirchilar degan ma'noni anglatadi. Chortoq Namangan viloyatidagi tuman. Buni to'rt tog' deb noto'g'ri izohlaydilar. Qadimda to'rt gumbazli inshoot ark, qorovulxona, qo'rg'on, chortoq deyilgan. Chimyon Toshkent viloyatidagi cho'qqi va kurort nomi. Ruschada Chimgan aslida Chimgon. Chimo'tzor, shirin ajriq, gon qo'shimchasi suv daryo ma'nosini anglatib chimgon keyinchalik talaffuzda chimyonga aylangan. **Tuyatortar** Zarafshondan Jizzaxga keltirilgan kanal nomi. Kanal qurilishida asosiy transport vositasi tuya bo'lgani uchun shunday nomlangan. Tuyamo'yin Amudaryoning quyi oqimidagi suv ombori. Chetdan qaraganda ushbu joy tuyaning bo'yiniga o'xshaydi. Aslida tog', daryo va qumlik joylarning toraygan qismi tuyamo'yin deb atalgan.

III.BOB. BULUNG'UR TUMANIDA JOY NOMLARINI O'RGANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

3.1. Bulung'ur tumanida joy nomlarining shakllanishida mahalliy geografik terminlar roli

Bulung'ur toponimlarining vujudga kelishida toponimlar shakllanishining umumiy qonuniyatlari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Bulung'ur joy nomlarining shakllanishida faqat mahalliy toposistemaga xos bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Bu qonuniyatlar tumanning iqtisodiy geografik joylashgan o'rni, aholining milliy tarkibi, ularning asrlar davomidagi tarixi va h.k. bilan to'g'ridan - to'g'ri bog'liqdir.

Yer yuzidagi barcha toponimlarning ko'pchilik qismi dastavval turdosh otlardan tarkib topgan. Keyinchalik esa, geografik nomlar (toponimlar) mazmunan va shaklan atoqli otlarga aylanib borgan. Ko'pchilik toponimist olimlar fikricha, qadimgi tillarda atoqli otlar bo'lmagan. Masalan, Avstraliya, Afrika va Amerikaning mahalliy xalqlari - aborijenlar tillarida atoqli otlar juda kam uchrar ekan. Bunday tillarda turdosh otlar yoki qandaydir iboralar atoqli otlar vazifasini bajarishi mumkin.

Insoniyat jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida o'sha davr odamlari uchun yashash makoni juda chegaralangan va geografik ob'ektlarni nomlash uchun ham zaruriyat deyarli yo'q edi: ular tog'larni, tepalarni (umuman barcha rel'yef ob'ektlarini) - "tog", daryo, jilg'a, soy va h.k. larni "suv", "daryo", ko'l, dengiz, okeanlarni esa - "dengiz" shaklida, ya'ni faqat bittagina turdosh ot bilan nomlashgan. Uzoq vaqt davomida tilning rivojlanishi yoki xalqlarning yashash joylarini o'zgartirishi bilan geografik terminlarning (yuqorida qayd etilgan turdosh otlar) aksariyati foydalanishdan chiqib qolgan va ular ob'ektlarni ifodalovchi «nom»ga (toponimga) aylanib, hozirda ham saqlanib kelmoqda. Bunga sabab yangi avlod yoki yangidan kelib joylashgan boshqa tilda gapiruvchi aholi bu

terminlarni (turdosh otlar) ma'nosi noma'lum bo'lgan atoqli ot (toponim) sifatida qabul qilgan.

Ko'pchilik yirik daryo va tog'lar qadimda oddiygina suv, tog', tepa deb atalgan. Bu oddiy suv, tog', tepa kabi so'zlar keyinchalik geografik nomga (toponimga) aylangan. Masalan, «**don**» so'zi qadimgi skiflar tilida «daryo» ma'nosini bildirgan, skiflar avlodi hisoblanmish hozirgi osetin tilida bu so'z asl ma'nosida saqlanib qolgan.

Mazkur qonuniyat Bulung'ur joy nomlarida ham o'z ifodasini topgan. Bu qonuniyat, ayniqsa, tumanning ba'zi gidronimik toponimlari uchun xos hisoblanadi. Jumladan, ariq, anhor terminlarining aksariyati dastlab nom sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik terminga aylanib, toponimlar tarkibida qo'llaniladigan bo'lgan. Aslida mahalliy geografik terminlarning gidronim, oronim, oykonimlarning shakllanishidagi ishtiroki birdek deb bo'lmaydi. Masalan, Belarus gidronimlarining faqat 10 foizigina mahalliy geografik terminlar ishtirokida yasalgan. Biroq, oykonimlar yasalishida bunday mahalliy terminlar 55-60 foizni tashkil etadi. Farqlarning bu kabi katta bo'lishini ayrim tadqiqotchilar gidronimlarning oykonimlardan qadimgiroq ekanligi bilan izohlaydi. Haqiqatdan ham qadimgi toponimlarning o'zgarib ketishi, ular tarkibidagi terminning yo'qolishi yoki nom tarkibidan tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mahalliy geografik terminlardan geografik nomlar etimologiyasini aniqlashda foydalanish bilan birga, ma'no siljishi (ko'chishi) va termin ma'nosining o'zgarishga uchrashini ham e'tiborga olish zarur. Bunday o'zgarishlar aniq geografik, tarixiy va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Ba'zan termin mazmuni uning birlamchi mazmunidan boshqacha bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan, turkiy tillardagi umumiy «**qir**» termini hozirgi turk tilida tekislik, dala, qirg'iz tilida past tog'lar, qozoq tilida past tog'lik, turkman tilida qattiq, tekis, ochiq yuzali platolar, o'zbek tilida yuzasi balandpast, mutlaq balandligi 200-500 metr bo'lgan yerlar ma'nolarini anglatadi. Bunday holatni Bulung'ur tumanidagi mahalliy geografik terminlardan «**qala**» termini misolida ko'rish mumkin. Bu terminni

o'zbek tilidagi «**qal'a**» termini bilan aynan bir xil desa ham bo'ladi. Lekin, o'zbek tilidagi «qal'a» - istehkom, qo'rg'on ma'nolarini anglatgan.

Geografik nomlarning qanday ob'ektga (ko'l, daryo, tog', tekislik, qishloq, ko'cha va h.k.) tegishli ekanligini ko'pincha toponimlar tarkibidagi terminlar orqali aniqlash mumkin. Masalan, ko'l, daryo, soy, terminlari geografik nomning gidronim, ya'ni suv ob'ekti ekanligini bildirsa (**Bulung'ur, Yangibesh, Qoraariq, Qorasuv, Polvonariq, Tuyatortar, Oqtepa, Oqariq kabi ariq va kanallar**), tog', tepa, jar, qum kabi terminlar o'zlari ishtirok etayotgan nomning oronim ekanligini ko'rsatadi. Bulung'ur tumanida toponim hosil qilishda gidronimik terminlar oronimik va oykonimik terminlarga nisbatan ko'proq qatnashadi. Gidronimik terminlarning har ikkala turiga oid terminlar ham soniga, ham toponim hosil qilish salmog'iga ko'ra boshqa tipdagi terminlardan oldinda turadi.

Aholi punktlari yoki joy nomlari asosan 2 yirik guruhga bo'linadi:

1. Tabiiy yoki tabiiy geografik oykonimlar.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.

1. Tabiiy yoki tabiiy geografik oykonimlar (jadval 2):

- a) GIDROOYKONIMLAR - suv ob'ektlari bilan bog'liq joy nomlari:
- b) OROOYKONIMLAR - rel'ef bilan bog'liq joy nomlari:
- c) FITOOYKONIMLAR - o'simliklar bilan bog'liq joy nomlari:
- d) ZOOTOPOONOMIK OYKONIMLAR - hayvonlar bilan bog'liq joy nomlari:

(jadval-2)

GIDROOYKONIM	OROYKONIM	FITOOYKONIM	ZOOTOPOONOMIK OYKONIMLAR
Bulung'ur	Adirtut	Adirtut	Alqartepa
Jonxo'roz	Alqortepa	Katta paxtaboshi	Bedana
Ingichka	Beshqo'ton	Kildon	Kaptarxona
Katta jonxo'roz	Botbot	Mingchinor	Sho'rbedana
Mirzabuloq	Jamonjar	Pastkildon	Res - da 1% dan oshmaydi zootoponimlar

Tig`irig	Jar	Paxtaboshi	
Zarafshon	Zertong	Changal	
Qora arir	Oqtepa	Sho`ra	
Buluhg`ur ariq	Tepa	Yalpizog`och	
	Tumshuq	Olmazor	
	Fatmontepa	Res - da 1% dan o`proq fitooykonimlar	

2. Ijtimoiy - iqtisodiy oykonimlar (jadval-3):

- ❖ ETNOTOPONIMLAR - urug` bilan bog`liq joy nomlari:
- ❖ ANTROPOTOPONIMLAR - odamlar ismi bilan bog`liq joy nomlari:
- ❖ OYKONIMIYA - uy bilan bog`liq joy nomlari (oykos - uy):
- ❖ URBANOMIYA - shahar yoki qishloq bilan bog`liq joy nomlari:
- ❖ KASB - HUNAR bilan bog`liq joy nomlari:

(jadval-3)

ETNOTOPONIMLAR - urug` bilan bog`liq joy nomlari			
Almatso`fi	Moytam	Suzoq	Qarapchi
Achamayli	Mo`g`ol	Uyas	Qirq
Barlos	Nebo`sa	Chambiltepa	Qiyon
Beshbola	Oybekto`p	Changal	Qoraariqmitan
Beshkal	Ochamayli	Chibat	Qorakesak
Beshkuba	Oqtepamitan	Chubat	Qorqqursoq
Bolg`ali	Oqtom Beshbola	Chuyut	Qoraqo`ng`irot
Bo`ston	Oqtosh Quyonchi	Erganakli	Quvvat
Yomonqo`yonchi	Oqqovun	Eshmanto`p	Qulchabiy
Eshmanto`p	Pastqo`shtamg`ali	Yuqoriqo`shtamg`ali	Qo`rqlas
Kattao`roqli	Sariyuzmon	Yangiorganakli	Qurqozon
Kattaqishloq	Sario`roqli	Yangiqora	Qo`ng`irot
Kattaquyunchi	Saroy	O`ray	G`ayr
Mang`it	Sartyuzi	O`roqli	
Mitan	Solin	O`tap	

ANTROPO- TOPONIM	OYKONIMIYA (uy b-n bog`liq)	URBANOMIYA	KASB - HUNAR b-n bog`liq
Katta xo`jabachcha	Kapali	Yangiyo`l	Bog`bon
Niyozmat	Beshkapa	Yangiobod	Sohibkor
Xolmurod		Yangiqishloq	Mirzaboshi
Xo`jabachcha		Yangiqurilish	
Xotam		Yangibet	
A. Navoiy QFY			
F. Yo`ldosh QFY			
Avliyo Parpi			
Qirqaxmad			
Quvondiq			

ANTROPOTOPONIMLAR - odamlar ismi bilan bog`liq ko`chalar nomi			
A. Qaxxor	Gulshan	Uvaysiy	Sh. Rashidov
A.Qodiriy	Zafar	Ulug`bek	Hamid Yo`ldosh
Al Xorazmiy	Zebuniso	Usmon Nosir	Yulduz
Alpomish	Ibn Sino	Farobiy	
A. Temur	Mashrab	Fuzuliy	
Atoiy	Muqumiy	Furqat	
Beruniy	Nodirabegim	Hamza	
Bobur	Oybek	H. Olimjon	
G`.G`ulom	Sobir Raximov	Xo`janazar baxshi	

3.2. Tuman hududidagi ko`cha, qishloq va aholi manzilgohlaridagi joy nomlarni o`rganishning geografik jihatlari

Tuman bo'yicha bugungi kunda 7 ta QFY va 50 ta MFY mavjud bo'lib, ushbu mahallalarning barchasi milliy mafkuramizga xos nomlar bilan atalib kelinmoqda, ushbu mahallalarda 150 ta qishloq va 84 ta ko'chalar mavjud bo'lib, ushbu ko'chalar tuman hokimligi huzuridagi toponomik ob'ektlarga nom berish komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilgan. Tumandagi qishloq fuqarolar yig'ini raislari bilan hamkorlikda tuman hududidagi barcha qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari, ko'chalarning nomlari aks ettirilgan muhr va shtamplar yangilangan. Shu bilan birgalikda ayrim MFY ko'chalarining nomlari eski ko'chaning nomi bilan qayd etilganligi aniqlandi. Masalan, Mehrjon MFYda fuqarolarga beriladigan

ma'lumotnomani qayd etish kitobida hanuzgacha eski ko'cha nomlari bilan fuqarolarga ma'lumotnomalar berilmoqda. Bunga misol, N.Esonturdiyev, Allanazarov, F.Xo'jayev ko'chalari. Vaholanki, bu ko'chalar tuman hokimining 2009 yil 30 noyabrdagi 589-Q sonli qarori bilan N.Esonturdiyev o'rniga Chamanzor, Allanazarov o'rniga Lolazor ko'chalari qayd etilishi lozim edi.

Tuman markazi Bulung'ur shahridagi ayrim ko'chalarda ko'chalarning eski nomlari aks ettirilgan panolar hozirgi kunga qadar almashtirilmagan, tuman hokimining qaroriga asosan fuqarolarning pasportlariga yangi ko'chalar nomlarining to'g'ri yozilishini muntazam nazoratga olish ishlarini kuchaytirish, toponomik ob'ektlarga yangi nom berilishi munosabati bilan hududlardagi muassasa, korxona va tashkilotlar ish kog'ozlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirilishini nazorat qilish zarur.

Tuman hokimligi huzuridagi toponomik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi komissiya 2010 yil uchun ish reja tuzilib toponomik komissiya tarkibini yangilangan. Komissiya tarkibida tumandagi ziyolilar hamda boshqa yetakchi mutaxassislardan iborat tarkibdagi ishchi guruhni shakllantirilgan ammo ushbu komissiya tarkibiga tuman Statisitka bo'limi, tuman hokimligi tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tuman IIBdan ham masullar kiritish lozim guruh a'zolarining har birini QFY ga mas'ul etib belgilangan.

Hokimlik huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish inspeksiyasi bilan birgalikda yangidan ish faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olishda «Davlat tili to'g'risida»gi, «Reklama to'g'risida»gi Qonunlar talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash savdo shaxobchalari umumiy ovqatlanish korxonalari to'yxonalarga shaxs ismi bilan bog'lik bo'lgan nomlar qo'yilmasligini qat'iy ta'minlash bo'yicha ishchi guruhdagi mas'ul shaxslarga tuman hokimi tomondan topshiriqlar berilgan.

Biroq, Davlat tilida ish yuritishda savdo shaxobchalari umumiy ovqatlanish korxonalarining ba'zilarida kiril alifbosida yozuvlar mavjud. Bularni lotin grafikasiga utkazish lozim.

Tumandagi qishloq fuqarolar yig'ini raislari bilan hamkorlikda tuman hududidagi barcha qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari, ko'chalarning nomlari aks ettirilgan muhr va shtamplar yangilangan. Shu bilan birgalikda ayrim MFY kuchalarining nomlari eski kuchaning nomi bilan qayd etilganligi aniqlandi. Masalan, Mexrjon MFY da fuqarolarga beriladigan ma'lumotnomani qayd etish kitobida xanuzgacha eski kucha nomlari bilan fuqorolarga ma'lumotnomalar berilmoqda. Bunga misol, N.Esonturdiyev, Allanazarov, F.Xujayev ko'chalari voxalanki, bu kuchalar tuman hokimining 2009 yil 30 noyabrda 589-Q sonli qarori bilan N.Esonturdiyev o'rniga Chamanzor, Allanazarov o'rniga Lolazor ko'chalari qayd etilishi lozim edi. Tuman hokimining nom qo'yish tugrisidagi qarori va uzgargan kuchalarning nomlari e'lonlar doskasida mavjud.

Nom qo'yish to'g'risidagi tuman xokimining qarorlari tumandagi bir qator tashkilotlarga yetkazilgan misol uchun tuman IIB, tuman tibbiyot birlashmasi, tuman fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish bo'limi (FXDYo), tuman elektr tarmoqlari, tumangaz korxonasi, tuman soliq inspeksiyasi, tuman pensiya jamg'armasi, tumandagi qishloq fuqarolar va mahalla fuqarolar yig'inlariga o'z vaqtida yetkazilgan bo'lib qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari, ko'chalarning nomlari aks ettirilgan panolarni belgilangan joylariga o'rnatish topshirig'i berilgan bo'lsada ayrim ko'chalarda ko'chalarning eski nomlari aks ettirilgan panolar xozirgi kunga qadar almashtirilmagan, tuman xokimining qaroriga asosan fuqarolarning pasportlariga yangi ko'chalar nomlarining to'g'ri yozilishini muntazam nazoratga olish ishlarini kuchaytirish, toponomik ob'ektlarga yangi nom berilishi munosabati bilan hududlardagi muassasa, korxona va tashkilotlar ish kog'ozlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirilishini nazorat qilish zarurligi tavsiya qilinadi (jadval-4).

**Bulung'ur tuman hududidagi barcha ko'chalarning
RO'YXATI**

(jadval-4)

T/R	Barcha ko'chalar nomi	Qachon o'zgartirilgan	
		Sana, oy va yil	Qaror raqami
1	Bobur	29 mart 1990 yil	№21-Q
2	Sabaloq	29 mart 1990 yil	№21-Q
3	Ulug'bek	29 mart 1990 yil	№21-Q
4	Furqat	29 mart 1990 yil	№21-Q
5	Farobiy	29 mart 1990 yil	№21-Q
6	Cho'lpon	29 mart 1990 yil	№21-Q
7	Yakka tut	1 may 2009 yil	№191-Q
8	Birlik	29 mart 1990 yil	№21-Q
9	Mashrab	29 mart 1990 yil	№21-Q
10	Bunyotkor	29 mart 1990 yil	№21-Q
11	Zebuniso	29 mart 1990 yil	№21-Q
12	Qoravultepa	1 may 2009 yil	№191-Q
13	Usmon Yusupov	29 mart 1990 yil	№21-Q
14	Alpomish	12 may 2006 yil	№2608-Q
15	Azlarbuloq	1 may 2009 yil	№191-Q
16	Nurafshon	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
17	Beruniy	29 mart 1990 yil	№21-Q
18	Guliston	29 mart 1990 yil	№21-Q
19	Istiqbol	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
20	Atoiy	12 may 2006 yil	№2608-Q
21	Ibin Sino	29 mart 1990 yil	№21-Q
22	Nurafshon	29 mart 1990 yil	№21-Q
23	Yoshlik	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
24	Zarafshon	29 mart 1990 yil	№21-Q

25	Oqariq	29 mart 1990 yil	№21-Q
26	Oqtepa	29 mart 1990 yil	№21-Q
27	Usmon Nosir	29 mart 1990 yil	№21-Q
28	Marvarid	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
29	Do'lanazor	1 may 2009 yil	№191-Q
30	Shodlik	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
31	Saxovat	1 may 2009 yil	№191-Q
32	Farxod qo'rg'oni	29 mart 1990 yil	№21-Q
33	Katta buloq	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
34	Abdulla Qaxxor	29 mart 1990 yil	№21-Q
35	Mevazor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
36	Abdulla Qodiriy	29 mart 1990 yil	№21-Q
37	Oyqor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
38	Sayxun	12 may 2006 yil	№2608-Q
39	O'rikzor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
40	Do'stlik	29 mart 1990 yil	№21-Q
41	Shabnam	1 may 2009 yil	№191-Q
42	Gulshan	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
43	Hamza	29 mart 1990 yil	№21-Q
44	Chinnigul	12 may 2006 yil	№2608-Q
45	Muqumiy	29 mart 1990 yil	№21-Q
46	Nodirabegim	29 mart 1990 yil	№21-Q
47	Uvaysiy	29 mart 1990 yil	№21-Q
48	Yangi tong	1 may 2009 yil	№191-Q
49	Samarqand	29 mart 1990 yil	№21-Q
50	Sharof Rashidov	29 mart 1990 yil	№21-Q
51	Hamid Olimjon	29 mart 1990 yil	№21-Q
52	Toshkent	29 mart 1990 yil	№21-Q
53	Iftixor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q

54	Al Xorazmiy	29 mart 1990 yil	№21-Q
55	Alisher Navoiy	29 mart 1990 yil	№21-Q
56	Xo'janazar baxshi	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
57	G'ofur G'ulom	29 mart 1990 yil	№21-Q
58	Amir Temur	29 mart 1990 yil	№21-Q
59	Soxibkor	29 mart 1990 yil	№21-Q
60	Fozil Yo'ldosh	29 mart 1990 yil	№21-Q
61	Spitamen	12 may 2006 yil	№2608-Q
62	Yangi avlod	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
63	Sobir Raximov	29 mart 1990 yil	№21-Q
64	G'alaba	29 mart 1990 yil	№21-Q
65	Sayilgoh	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
66	Qadriyat	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
67	O'zbekiston	29 mart 1990 yil	№21-Q
68	Lolazor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
69	Ochil Shomurodov	29 mart 1990 yil	№21-Q
70	Mustaqillik	29 mart 1990 yil	№21-Q
71	Afrosiyob	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
72	Yulduz	29 mart 1990 yil	№21-Q
73	Tinchlik	29 mart 1990 yil	№21-Q
74	Orzu	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
75	Bulung'ur shox	29 mart 1990 yil	№21-Q
76	Oybek	29 mart 1990 yil	№21-Q
77	Chamanzor	30 noyabr 2009 yil	№589-Q
78	Shiroq	12 may 2006 yil	№2608-Q
79	Fuzuliy	12 may 2006 yil	№2608-Q
80	S.Ibragimov	29 mart 1990 yil	№21-Q
81	Mingchinor	29 mart 1990 yil	№21-Q
82	Zafar	29 mart 1990 yil	№21-Q

83	Hamid Yo'ldoshev	29 mart 1990 yil	№21-Q
----	------------------	------------------	-------

Tumandagi mahallalariga qarashli ko'chalar va qishloqlar .

1	Mehrjon	Qadriyat, Lolazor, Afrosiyob, Orzu, Chamanzor, Yoshlik, Oqtepa, O'zbekiston, Oybek, Tinchlik, Yulduz, O.Shomurodov, F.Yo'ldosh, A.Temur, Farobiy, Bulung'ur shoh.
2	Istiqlol	Spitamen, Talaba qo'rg'onchasi, Istiqlol, Zarafshon, Oqtepa Esonturdiyev, Saxavot, Guliston, Do'lanazor, Cho'lpon, A.Donish
3	Samarqand	Uvaysiy, Yangi tong, Shabnam, X.Olimjon, Samarqand, Muqumiy, Nodira, Sh.Rashidov, X.Yo'ldosh, Inqilob
4	Ulug'bek	Yangi tong, Shabnam, X.Olimjon, Samarqand, Toshkent, Sh.Rashidov, Iftihor, Uvaysiy, Inqilob
5	A.Temur	Istiqbol, Mirsharapov, A.Qodiriy, Oyqor, Mevazor, O'rikzor, A.Qahhor, Katta buloq, G'.G'ulom, F.Yo'ldosh, Sohibkor, S.Raximov.
6	Do'stlik	Chinnigul, Bobur, U.Nosir, Furqat. Guliston, Cho'lpon, M.Ulug'bek, farobiy, Sabaloq, Sabolok qo'rg'oni, Do'lanazor, A.Donish, Ikki qavatli uylar, Sh.Mamanov, Cho'lpon.
7	Navbahor	Birlik, Bunyodkor, Zebiniso, O'zbekiston 60 yil, Mashrab, G'alaba 40 yil, Qorovul tepa, Usmon Yusupov, Yakka tut, Sabaloq 1-27 gacha, G'alaba 40 yilligi ko'p etajli uy.
8	Bulung'ur	Sohibkor, A.Temur, F.Yo'ldosh, Saylgoh, Bashxi, A.Navoiy, Spitamen, S.Raximov, N.Jo'raboyev, S.Ibragimov, Al Xorazimiy, G'.G'ulom, G'alaba.
9	Guliston	O'zbekiston, F.Yo'ldosh dom, Gulshan, Bulungur shoh, Do'lanazor, Hamza, Chinnigul, Farobiy, Do'stlik, G'alaba 40 yil, Furqat.
1	Navoiy QFY	
10	Changal	Ko'm, Ravot
11	Changalpoyon	Changalpayon q, Changal q, Ashirto'p q, Xurmi q, Yerteshar q, Yangi kora q.
12	Mextar	Qum q, Mextar k, Erganak q, Quvondiq q
13	Esonturdi	Esonturdi q, Omonturdi q, Guliston q, Zarafshon q, Yangiobod q, Yangibesh q, O'tab q.
14	Qirqshodi	
15	Kattaqishloq-1	Katta qishloq-1 q, Mirzaboshi q, Sirtqi olomon q, Ravot q.
16	Kaptarxona	Kaptarxona q, Qirq-Ahmad q, O'rta-ovul q, Yuqori-ovul q, G'isht-to'p q, G'ojir q, Chambiltepa q.

2	Kildon QFY	
17	Kildon	Kildon q.
18	Kichikkildon	Ravot q, Past q, kal q, Yuqori q, Olmazor q.
19	Sayiltepa	Ravot q, Tinchlik q, Tepa q, Sayiltepa q, Beshkapa q, Sartyuzi q.
20	Mo'g'ol	Mug'ol q, Ravot q
21	Xo'jamazgil	Parmontepa q, Cho'bat q, Xo'jamazgil k, Mo'llato'p q, Yangi q.
22	Avliyo Parpi	Dobul, Gulbuloq, Xatam, Quvvat, Mo'llato'b, Eshon
23	Xo'jabachcha	Xo'jabachcha, Kattakishloq, Nurafshon.
24	Suluvqo'rg'on	Solin q, Uyas q, Qor oshqi q,
25	Sarqipchoq	Almaso'fi q, Jarqishloq , Sarqipchoq q
26	Chorbog'	I.Po'latov,X.Sapar,B.Do'stov,Umarov Narzi,Yangi qishloq,Do'stobod,Yunusobod, Bozorjoy.
27	Beshkuvi	Beshkuvi q, Bek to'p q.
3	Sohibkor QFY	
28	Oqtosh	Sho'rbedana q, Oqtosh, Mo'minobod
29	Bo'dana	Mo'min q, Mo'min q, Somon yo'li, O'rtabuz q
30	Soxibkor	Markaziy qo'rg'on q, Dashkovul q, kaltepa q.
31	Erganakli	Bolg'ali q, Posyolka, O'rta-ovul q, Julma q, Sakson q, Yuqori q, Bog'i-baland q.
32	Nurli yo'l	Olmazor q, Tongotar q, Yangiobod q, Qiyat q, Besh-bola q.
33	Mingchinor	Mingchinor q, Qorakamar q, Tumanovul q,
34	Gulzor	Yangi Erganakli, Beshbola, Aqtepa Mitan, Tig'iriq, Qurqozon
4	F.Yo'ldosh QFY	
35	O'roqli	O'roqli, Olqartepa, pastki qoshtamxol
36	Isori O'roqli	Isori O'roqli, Pastki qashtomxol
37	Bulung'ur ariq	Jomonjar
38	Changal-1	Qirq qishloq
39	Niyozmat	Niyozmat, Kapali, Ravot,
40	Nebo'sa	Yuqori qashtamxol, Qurqozon, Nebo'sa, Tig'iriq, Kichkina nebo'sa
5	Beshqo'ton	
41	Kattaqishloq	Katta qishloq, Qiyon q, Temiryo'lchi q, Oq-ariq q, dorotdel, Bo'ston q, Ingichka q,
42	Olmazor	Soboloq q, Oq-qovun k, Mitan q, Paxtaboshi q, Yukori pahtaboshi, Kazarma q.
43	G'o'bdin	La Imikor , Qizilqo'rg'on, Tumshuq, Eshmanto'p, Yangiobod, Shivoqli, Mirzabuloq,Qo'ng'iro't, Navruz, Qorovultepa.
44	Yangiariq	Yangiobod q, Mehnatobod q, Xatga q, Oltibaroq q,

		To'qson q.
6	O'rtabuloq	
45	Yangiobod	Yangi qo'rg'on, Sh.Rajabov, A.Navoiy, S.Raximov, Madaniyat, Allamurodov
46	Beshqo'ton	Lagir, R.Saipov, G'.G'ulom, Hamza, O'zbekiston q.
47	Mingtepa	Do'stlik q, Tinchlik q, Birlik q.
48	Bog'bon	Beshqo'ton, Bot-bot,
7	Kulchabiy	
49	Zarafshon	Chuyut q, Yangiqishloq, Yolg'izog'och q, Katta jonho'roz q, Katta quyonchi q.
50	Oqtepa	Beshqo'sh q, Yomonqo'yonchi q, Oqtepa q, Ochamoil q, Oqtobeshbola q, Oqtomqo'yonchi q
51	Gulobod	Changal, Aktam Quyonchi, Aktam Beshbola, Devonatepa, G'ayir

Bulung'ur tumanidagi qishloqlar ma'nosi

Adirtut - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimdagi adir so'zi tepalik, balandlik; tut-madaniy daraxt, ipak olish uchun manba sifatida sharq xalqlariga miloddan avval ma'lum bo'lgan va ular tillarida bir xil tovush tuzilishida qo'llangan.

Adirtut-tut daraxti o'sgan tepalik demakdir.

Alamli - Bulungur tumanidagi qishloq. Alam arabcha so'z bo'lib, u "bayroq, tug', nishon, alomat, belgi" ma'nosi bilan aloqadordir. -li mavjudlik ma'nosini ifodalovchi qo'shimchadir. Alamli "aziz avliyolar mozori" yoki; shaxid bo'lgan kishi ko'milgan joydagi belgi" demakdir. Alamli muqaddas joyda o'sgan daraxt shoxlariga yoki shaxid bo'lgan kishi mozoriga qoqilgan tayoqqa osilgan har xil lattalardir.

Almatso'fi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim almat va so'fi qismlaridan iborat. Xalq izoxiga ko'ra, birinchi bo'lib xovli qo'rg'on qurgan kishi ismi bilan atalgan: Almat-Ali Muhammad ismining qisqargan ko'rinishi.

Qadimgi kerayit' oltoylar va o'zbeklarda almat urug'i bo'lgan. Etnonim oykonimga o'tgan.

So'fi- masjidida azon aytuvchi kishi; muezzin; soda; go'l xudojo'y odam.

Almatso'fi - Xudojo'y Almat nomi bilan atalgan qishloq. Antroponi toponimga o'tgan.

Alqartepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim alqar va tepa qismlaridan iborat. Alqar "yovvoyi tog' qo'yi", tepa "boshqa joyga nisbatan yuqori, baland bo'lgan joy" degani.

Umuman Alqartepa alqori ko'p Bo'lgan tepalik demakdir.

Achamayli - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'kiz, qo'tosga uriladigan egar yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay - achamay deyilgan. Achamayli "tamg'asi egar shaklidagi urug'" demak.

Qo'ng'iroq qabilasining vaxtamg'ali bo'limi, kenagas, yuz, durman, nayman, qurama, marka qabilalarining bir shoxobchasi achamaylin deb atalgan. Qoraqalpoqlar tarkibida ham ashamayli urug'i mavjud.

Barlos - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Barlos "qadimgi turkey qabilalardan biri", "mo'g'ullarning barulos qabilasi", mo'gulcha "semiz, kuchli", "turkiy lashkarboshi, yo'l boshchi, botir jangchi" ma'nolarida qo'llanilgani ma'lum. Barlos so'zining lug'aviy ma'nosida ham yuqoridagi ma'nolar bor. Etnonimning birinchi qismi bar mo'g'ulcha yo'lbars, sher, arslon, burgut, botir lashkarboshi demak. So'nggi qismi -ilos, -ulas, -los, -las, -ga, -gut, -kut, -lagdir.

O'zbeklardagi barkut, mo'gullardagi barga, barlag degan qabilalar nomlari ham yuqoridagi sharxlangan ma'no bilan bog'liq. Hozirgi yoqut tilida bar kul "burgut, yo'lbars" ma'nosini bildiradi.

Barlos tarixan ham yasama so'z bo'lib, u ham yo'lbars, ham burgut ma'nosini bildirgan. Ana shu totem nomidan urug', qabila nomi yuzaga kelgandir.

Bedana - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bedana qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub ovlanadigan kichik sayroqi qush ko'p bo'lgan joy ma'nosidadir, deyiladi xalq etimologiyasida. Xalq shevalarida mavjud bo'lgan pidanani "yalpiz" so'zi bilan bog'laydilar.

Toponimlar forsha pex-bex-be- "keng, katta" va dana-"ombor, istexkom, atrofi o'ralgan joy" so'zlaridan yasalgan bo'lib katta istehkom, keng ombor ma'nosini anglatadi.

Bekto'p - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim bek va to'p qismlaridan iborat. Bek-O'rta Osiyoda feodal xonliklardagi mansab yoki tuman boshlig'i. Bu so'z "aslzoda, hukmdor, ulug', katta, janob" ma'nosida ham qo'llaniladi. To'p-ko'p, to'da, kishilar guruhi.

Bekto'p miqdori jihatdan ko'pchilikni tashkil qiluvchi kishilar guruhi demakdir. Qo'ng'irot qabilasining qanjigali urug'ining bir shoxobchasi moltop deb ataladi. Ana shu shoxobchaning tarkibida bekto'p bo'lagi bor. Xullas bekto'p etnonimdir.

Beshbola - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Beshbola toponimining "besh va bola" talqini ko'p tarqalgan. Ayrimlar toponim pesh "oldi", bolo "teplik, balandlik" deb izoxlaydilar. Ayrim tadqiqotchilar beshbolani urug' nomi deb ko'rsatadilar. Bu fikrga qo'shilsa bo'ladi, chunki qo'ngirotlarning oyini bo'limida, Zarafshon vodiysi Qoraqolpoqlarida sariqipchoqlar tarkibida, turkmanjuzlari marka shoxobchasida beshbola urug'i mavjud. Qishloq aholisining etnik tarkibiga nisbat berish asosida nomlangan.

Beshkal - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mang'it va yuzlarning kichik bir urug'i. O'zbek tilida so'zlovchi arablarning bir shoxobchasi beshkal deb ataladi.

Demak etnonimdan qishloq nomi hosil bo'lgan.

Beshkapa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim besh va kappa qismlaridan iborat. Kapa daraht shoxlari va yirik o't-o'lanlardan vaqtincha yashash uchun yasalgan xona, yozlik uy; chayla.

Beshkuba - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kuba so'zining quruq dasht, toshloq, tuproqli joy, cho'l oldi: qipchoq qabilasi, qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibidagi urug' nomi ma'nolari borligini talqin etadilar. Beshkuba- etnonimdan oykonimga o'tgandir.

Beshqo'ton - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ton- qo'y qamaladigan qo'ra yoxud qo'y qishlashi uchun qulay bo'lgan chuqur joy. Beshni "qadimiy, ko'xna", "past", "yuqori, baland", "ko'p" ma'nolarida qo'llanishini izoxlaydilar.

Beshqo'ton- qo'y qamaladigan qo'y qo'rasi ko'p bo'lgan joy.

Birlik - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Birlik so'zi "hamjixatlik, yakdillik", "umumiylilik, mushtaraklik", "sanash, o'lchash xisoblash uchun mezon sifatida qabul qilingan kattalik" ma'nosini ifodalaydi.

Bolg'ali - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ngirot, xitoy, yuz qabilalari tarkibida bir urug' bolg'ali deb ataladi. Ularning tamg'asi bolg'a shaklida bo'lgan.

Bolg'ali - etnooynikomdir.

Botbot - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim botbot mo'g'ulcha boom so'zining o'zgargan shakli bo'lsa kerak, deb xisoblaymiz. Chunki buum-bum so'zi mo'g'ulcha buu felidan olingan bo'lib asl manosi "yo'lni to'smoq, bo'g'ib qo'ymoq", "dara, darband" "baland va tik tumshuq", "tor vodiylar" degan tushunchalarni ifodalaydi. Ilono'tdi darasidan o'tgan shamol Bot-bot qishlog'i tarkibidagi tumshuqqa urilib, qishloqqa tegmay Bulung'ur shaxri tomon yo'naladi.

Bog'bon - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bog' va undagi mevali daraxtlarga, tok va gullarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi mutaxassis kishi.

Bulung'ur - Bulung'ur tumanidagi shahar. Bulung'ur toponimi turlicha izoxlanadi. Bulung'ur- mo'g'ulcha loyqa suv deb izoxlovchilar ko'p. Bulung'ur- umumturkiy so'z bo'lib u bulun-burchak, oxiri, chegarasi, burunva kir-xur-yonbag'ir, tog' yonbag'ridagi tik soylik zov, uzunasiga ketgan tog', tepalik qirrasini, tog' etagi, tog' qirrasini.

Bulung'ur - uzunasiga ketgan yassi tog'lik burchagi. O'zbek tilining urgut shevasida bulung-burchak ma'nosida hozir ham ishlatiladi. Qopning bulungidan ushla.

Bo'ston - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bo'ston o'zbek, qirg'iz, va ozarbayjonlarning tarkibidagi urug' nomi. Bo'ston urug'inomi oykonimga o'tgandir.

Devonatepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zini tanxo tutishga intilib, zikru xudoga berilib ketgan so'fiylar istiqomat qiluvchi tepa atrofidagi qishloq.

Dobil - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Dobil-Dovul-kuchli yemiruvchi bo'ron; ovchilar, to'pchi qorovullar yoki harbiylar uchun belgilangan maxsus nog'ora.

Yerteslar - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimda yer ekin maydoni, joy, makon, masofa; a'zo va narsaning qismi, bo'lagi. Teslar- parmalab, o'yib, kuydirib yoki boshqa yo'l bilan teslar ma'nosini bildiradi.

O'yish yo'li bilan hosil qilingan tesliklar yonidagi ekin maydoni yoki joy-yerteslar demak.

Yomon quyunchi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qoraqalpoq qiyatlarining tarkibidagi qo'ldovlilarning jomon quyunchi shoxobchasi bor.

Jamonjar - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Saroylarning yomon- jomon urug'i yashagan jar yonidagi qishloq.

Janjal - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bir-biri bilan aytishish, sanu manga boorish; urishish; bir-biri bilan davolashish, xaq talashish, davo kabilar janjal so'zining ma'nolarini tashkil etadi.

Jar - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Oqar uvlar yumshoq tog' jinslarini o'yib xosil qilgan chuqurlik jar deb ataladi.

Jar - chuqurlik, pastlik joyida bunyod etilgan qishloq.

Jonxo'roz - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim tarkibidagi jon-jom-jan-jim so'zi sizot suv, kanal, buloq, suv manbai, ariq, anxor, jilg'a, daryo shoxobchasi ma'nolarini bildiradi. Xo'roz so'zi mo'g'ul qalmoq, buryat tillarida quriya, qo'riyan, qo'ra, xo'ra, xo'ru, xo'ryun tarzida ishlatiladiv u "xovli, g'ov, qarorgox, qo'ton, molqo'ra to'siq, xon qarorgoxi, kazarma, devor, ixota ma'nolarini beradi. Turkiy tillar taraqqiyotining oltoy davrida -z ko'plik ma'nosini bildirgan. Shuning uchun xo'ra, xo'ru, xo'ryun so'zlari xo'raz, xo'ro'z tarzida ko'plikda ishlatilgan.

Jonxo'roz- suv manbaiga ega bo'lgan qarorgox demak.

Juguton - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Juhut so'zlashuv nutqida aynan yahudiy demak. Somiy tillari guruhiga mansub, butun dunyoga keng tarqalgan, kelib chiqishi va dini bir xil bo'lgan guruhlardan iborat xalq juhud-yahudiy deb ataladi. -on ko'plik qo'shimchasi toponimning sharhlangan ma'nosi bilan aloqasi yo'q. Pastqam, uylati bir - biriga tutashib ketgan, tor ko'chali bo'lganligi uchun yahudiylar yashaydigan uylarga o'xshatilgan. Shu o'xshatish asosida qishloqqa nom berilgan.

Zertong - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Zer-bar-var far-par - yuqori, baland; kulba, yurt, ko'chma manzil; joy, qo'rg'on; tong - tovon, quyi, etak, masofa jihatdan past tomon.

Zertong - balandlikning quyi tomonidagi qishloq.

Ingichka - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Barcha tog'lik tumanlarda soy, dara, jilg'a.

Ingichka - suv o'zaninig tor va oqim kuchli bo'lib, o'tish qiyin bo'lgan o'zani yonida bunyod bo'lgan qishloq.

Ingichka urug' nomio bo'lsa kerak degan taxminlar bor.

Ishmanto'p - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ishman-Eshman-kishi nomi. To'p - guruh, to'da, etnik va territorial guruh.

Ishmanto'p - eshman avlodlari guruhi yashaydigan joy.

Kapali - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o't-o'lanlar bilan o'rab qilingan xona, yozlik uy; chayla-Kapa deb ataladi.

Shunday uyi bor qishloq - Kapali demakdir.

Kaptarxona - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kaptar yashaydigan joy (jar, g'or, quduq, erto'la, uy) kaptarxona deb ataladi. Ana shunday joylar yaqinidagi aholi yashaydigan hudud - Kaptarxona demak.

Katta paxtaboshi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yangi yer o'zlashtirilib, paxta ekilgan dalaning boshida bunyod etilgan katta qishloq.

Katta xo'jabachcha - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'ja so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhning nomini anglatgan. Undan joy nomlari tarkibiga o'tgan. Bachcha - bola.

Katta o'roqli - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibida o'roqli degan urug' bo'lgan. Shundan "suloqlining to'yida o'roqlining ne ishi bor" degan maqol bor.

Kattaqishloq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qishloq so'zining qishda yashaydigan joy degan ma'nosiga aloqasi yo'q. Qishloq-qishlikdan kelib chiqqan. Qishliq urug' nomi.

Kattaqishloq - qishliq urug`i vakillarining kata qismi joylashgan joy.

Kattaquyinchi - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Quyin - quyun-quyon-qo`ng`ir otlar qanjig`ali bo`limiga qarashli 14 urug`ning biri. Bunday urug`lar qo`shtamg`alilarning kal urug`i tarkibida, qoraqolpoqlarda, boshqirtlarda mavjud.

Kildon - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Tojikcha kilk-kild-qamish; nay; nayqalam, qalam. **-on** qo`shimchasi o`rin-joy oti yasalgan. Kildon - qamishli, qamish o`sgan joy.

Kultepa - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Kultepa - kul tashlanadigan joy. Kulxona demak.

Lalmikor - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Tojikcha so`z bo`lib, lalmi-kor. Dehqonchilik tarsi va suvdan foydalanish usuliga ko`ra dehqon lalmikor va obikor deb atalgan. Lalmikor sug`orish inshootlari (ariq, kanal, band) dan foydalanmasdan, yerdagi nam va tabiiy yog`inlar yordamida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari va usuli.

**Mang`it** - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Mang`it o`zbek urug`laridan birining nomi. Bu urug` o`z navbatida oq mang`it, qora mang`it, och mang`it, chala mang`it, boygundi mang`it, temixo`ja, isoboy, gaulak, ko`sa, toz, qorabayir, baliqchi, qo`latamg`ali, mang`itqozoq, o`n ikki cho`qay, galabotir, beshkal, chobakchak, o`z, uvolay kabi tarmoqlarga bo`lingan.

Mehtar - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Buxoro xonligida Mehtar mansab nomi bo`lib, u kattaroq, katta kishi; oliy maqom; maxsuz otlarga qarovchi sayis ma`nosidadir. Mehtar-zakot yig`uvchi, soliq olish va egasi nomalum mulklarni tasarruf qilish ishlari bilan shug`illangan.

Mingchinor - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Mahalliy aholi mingta yoki ko`p chinor daraxti ekilgan, o`sgan joy deb izohlaydi.

Mirzabuloq - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Mirzabuloq - yuqoridagi katta buloq demak.

Mirzaboshi - Bulung`ur tumanidagi qishloq. O`zbek xonliklarida kotibiyat boshligi - Mirzaboshi.

Mitan - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Markaziy Osiyo xalqlari tarkibida uchraydigan urug' mitan deb atalgan.

Ko'pchilik olimlar ta'kidlaganidek, mitan so'zi fors tilidagi metana so'zidan kelib chiqqan va u yashash joy, uy, urug' mo'nolarini bildiradi. Shuning uchun har bir mitan so'zi bilan bog'liq joy nomining haqiqiy ma'nosini izohlash uchun tarixiy - lingvistik tatqiqot o'tkazish zarur.

**Mo`ytam** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitn qabilasining nomi, qoraqolpoqlarda mo`ytan deb atalgan.

Mo`ytan etnonimdan oykonimga o'tgan.

Mo`g`ol - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mo`g`al - mog`ol - mo`g`il - mo`g`o`l - qadimgi turkey qabilalardan biri. Etnonim asosida qishloq nomi yaratilgan.

Navbahor - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim tarkibi nav-bahor qismlaridan iborat. Eski o'zbek va tojik tillarida "erta bahor, ko'klam, ilk bahor, bahor faslining boshlanish arafasi" ma'nosidir. Hozirgi o'zbek tilida Navbahor - Navro`z, bahorning birinchi kuni, ilk bahor. Anashu ayyomda ilk poydevor qo'yilgan qishloq nomi.

**Navro`z** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha navro`z - yangi kun; quyosh (shamsiya) yili hisobida yangi yilning birinchi kuni 21 martgacha to`g`ri keladi; bahorning boshlanishi, bahor chog`i.

Nebo'sa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qoraqalpoqlarning bir urug'i shaxobchasi nebo'sa deb atalgan.

Nurafshon - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Rasmiy nomi Zarafshon gidronimga o`xshatib yasalgan: nur-af- shon - nur beruvchi. Ob'ekt bilan nom o`rtasida mantiqioy munosobat yo`q.

Oybekto`p - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek urug'larida kichik bir tarmoq oybek deb atalgan.

Oybekto`p - etnooykonimdir.

Olqartepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yovvoyi tog` to`yi yashaydigan tepa atrofidagi qishloq.

Omonturdi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tarkibi omon - turdi. Omon-sog`-salomatlik, tinchlik, osoyishtalik. Turdi - yashab qolsin, tursin.

Omonturdi - osoyishta tursin.

Ochamayli- Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo`ng`irotlar vaqtamg`ali bo`limining bir urug`i ochamayli deb ataladi.

Ochamayli - etnooykonimdir.

Oqtepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Oq so`zi tepa, jar, qum, mula so`zlari bilan birikkanda rang ma`nosini bildirmaydi. Tepalikning tik va yon qatlamini ifodalaydi.

Oqtepa - yon-atrofda shu tipdagi boshqa balandliklardan hajman katta, balandroq bo`lgan tepa.

Oqtepamitan - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitan qabilasining bir bo`limi oqtepamitan deb ataladi. Oqtepamitan - etnooykonimdir.

Oqtom beshbola - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo`ng`irot qabilasining kichik bir urug`i beshbola deb atalgan.

Oqtosh quyonchi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Quyonchi - urug` nomi. Oqtosh vartsga boy bo`lgan joy, sanoat ahamiyatyiga ega bo`lgan toshli yer. Anashunday yerda tashkil etilgan quyonchi urug`ining qishlog`i.

Oqqovun - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O`zbek urug`lari tarkibida qovchin urug`i mavjud. U qovunchi shaklida toponimga aylangan.

Pastkildon - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tojikcha kilk - qamish, nay; nayqalam, qalam; -on affiksi o`rin-joy oti yasagan.

Pastkildon - qamishli, qamish o`sgan joyning pastidagi qishloq.

Pastqo`shtamg`ali - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo`ngirotlar, marqa, jeti urug` tarkibida qo`shtamg`ali degan urug` bo`lgan.

Paxtaboshi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Paxta ekishga mo`ljallangan yerning boshiga bunyod bo`lgan qishloq.

Ravot - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Asli arabcha rabot - "karvonsaroy, musofirxona; shahar devoir, shaharning tashqi qismi; chegara po`sti, istehkom, qo`rg`on" ma`nolarinin bildiradi.

**Sario`roqli** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O`roqli - qipchoqlarning bir urug` nomi.

Sario`roqli etnooykonimdir.

Saroy - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Saroy qabilasining chemsaroy, qo`ng`irot saroy, jamonsaroy, qirg`izsaroy, mojorsaroy, oltintamg`alisaroy, qipchoqsaroy, jolong`ochsaroy kabi tarmoqlari bor.

Saroy so`zi ishtirok etgan joy nomlari viloyatimizda yana mavjud.

Sartyuzi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yuz qabilasining bir **tarmog`i** sartyuzi deb atalgan.

Solin - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O`zbek qabilalari tarkibida solin degan urug` bo`lgan. Solin urug`i navbatida tog`ay tubi, jobuchisolin, shodmontubi, kovraksolin, davlatsolin, uyazsolin, kirsadoksolin degan shaxobchalariga bo`lingan.

Sohibkor - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O`z ishining ustasi, omilkor bog`bon sohibkor deyiladi. Sohibkor - omilkor bog`bonlar bunyod etgan qishloq demak.

Suzoq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Suzoq so`zi xalq turadigan joy, manzilgoh degan ma`noni anglatadi. Qozoq, qirg`iz va o`zbeklar tarkibida suzoq urug`i mavjud.

Tegirmon - Bulung'ur tumanidagi qishloq. G`allani, donni yanchib un qilish - un tortish uchun moslangan qurilma va shunday qurilma o`rnatilgan bino.

Tegirmon - shunday qurilmasi mavjud bo`lgan qishloq.

Tepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tepa - yer sathidan baland, to`ng joy, tepalik, balandlik. Umuman, boshqa joyga nisbatan yuqori, baland bo`lgan joy.

Tumshuq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tog` yo yirik balandliklarning bo`rtib chiqqan do`ng qismi tumshuq deb ataladi.

Uyas - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Uyas-uyaz so`zi pashsha, chivin; etnonim sifatida talqin qilinadi. Uyas o`zbek urug`larining bir **tarmog`i** bo`lib, u marka urug`i tarkibiga kiradi. Uyas boshqa urug`lar tarkibiga ham kirgan.

Farmontepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponimning birinchi qismi farmon fors-tojikcha bo'lib, u "biror ishning bajarilishi haqida berilgan buyruq, topshiriq, ko'rsatma; davlat boshlig'ining qonun kuchiga ega bo'lgan buyrug'i, farmoyishi" ma'nosidir.

Farmontepa - hokimyat oily organi boshlig'i, hokimning buyrug'i asosida bunyod etilgan tepa demak.

Xapa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xapa - xafa, g'amli, qayg'uli, xasratli; ranjigan, ozor topgan, bezgan; arazlagan.

Xolmurod - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xol va Murod bo'lib, u istak, maqsad ma'nosidadir. Antroponim oykonimga o'tgan.

Xo'jamazgil - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Xo'jamazgil manzil qismlaridan iborat. Mazgil manzil safarda, yo'lda to'xtab o'tiladigan qo'nib turiladigan yoki etib boorish mo'ljallangan marra; yo'lning bir to'xtash joyidan ikkinchi bir to'xtash joyigacha bo'lgan masofa; turar joy, istiqomatgoh, vatan.

Chambiltepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chambil etnonim bo'lib, u qanjig'ali va qo'shtamg'ali urug'larining tarkibida mavjuddir.

Changal - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Daryo bo'ylarida ayniqsa uning qayir va terassalaridagi o'tish qiyin bo'lgan butazor changal deyiladi. Shu toponimdagi Changali bola, Changali poyon nomlari ham shakllangan.

Chibat - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'z urug'ining bir bo'limi chibat (chubat) deb atalgan.

Chorbog' - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Chorbog' so'zining "to'rt bog'", "atrofi devor bilan o'raglan har qanday bog'", "urug' nomi" deb izohlaydilar. Qadimgi turkey so'g'd tillarida sarvag' so'zi bo'lib, u qasr degan ma'noni bildirgan: pishpak otlig' sarvag'inta turi ieginur men ("oltin, yoqut").

Chubat - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibida chubat urug'i mavjud. Chubat - etnooykonimdir.

Chuyut - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek, qozoq, qoraqolpoqlar tarkibidagi kenagas, uyshun urug'larining bir bo'limi chuyut deb atalgan. Chuyut - etnooykonimdir.

**Sho`ra** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Fors-tojikcha sho`ra so`zi tashlandiq yerlarda, ekin maydonlarida g`ovlab o`sadigan yovvoyi o`t; tokning to`p guli, g`unchasi.

Sho`ra - fitonimdan oykonimga o`tgan.

**Sho`rbedana** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Sho`r yerdagi joyda bedana urug`i vakillari yashydigan qishloq.

Erganakli - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Erganak so`zi "katak" degan ma`noni bildiradi. O`zbek urug`lari tarkibida erganakli>erganak urug`i mavjud. Erganak - etnooykonimdir.

Eskirabot - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Sobiq rabot o`rnida bunyod bo`lgan qishloq.

**Eshmanto`p** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O`zbek urug`larining kichik bir shaxobchasi eshmanto`p deb atalgan. Eshmanto`p etnooykonimdir.

Yuqori qo`shtamg`ali - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo`ng`irot qabilasi qarapchi o`zbek qipchoqlarining bir **tarmog`i** qo`shtamg`ali deb atalgan.

**Yalpizog`och** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tibbiyot, attorlik va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan serbarg, xushbo`y ko`p yillik o`simlik. Yalpizog`och - shu o`simliko`sadigan joydagi qishloq.

Yangibet - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bet odam betining oldingi qismi, yuz, aft; biror narsaning sirti; saxifa; chet, qirg`oq, sohil; tig`, dam. Yangi bet - betkay tomondagi yangi qishloq.

**Yangiyo`l** - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Dastlab kolxo`z nomi bo`lgan, so`ng qishloq nomiga aylangan rasmiy nom.

Yangiobod - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Belgi bildiruvchi so`zlarga (yangi ,katta) qishloq nomi yasash dehqonchilik madaniyatining yuksalishi, qo`riq yerlarning o`zlashtirilishiga bog`liq. Yangiobod - yangi o`zlashtirilgan yerda tashkil topgan qishloq.

Yangierganakli - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Erganak so`zining ma`nosi katak demak. Erganakli - etnonim, Yangierganakli - etnooykonimdir.

Yangiqishloq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Ilgari qishloq bo'lgan joyda paydo bo'lgan yangi aholi punkti ma'nosidir.

Yangi qurilish - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Tubdan yangi turar joylar bunyod etilgan qishloq Yangi qurilish deb nom olgan.

Yangi qora - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qirq qabilasining bir tarmog'i qora (qoracha) deb ataladi. Qora urug'iga tegishli kishilarning yangi qishlog'i.

O'ray - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qipchoqlarning sariqipchoq shoxobchasiga kiruvchi kichik bir urug' o'ray deb atalgan.

O'roqli - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qabilalari tarkibida mavjud bo'lgan urug' o'roqli deb ataladi.

O'tap - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim aslida o'tari bo'lib, u qo'ng'irotlar tarkibidagi urug' nomi. O'tap - o'tari - etnooykonimdir.

Qarapchi - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qarapchi etnonim sifatida o'zbek urug'lari tarkibida tilga olingan. Qarapchi so'zi "kambag'al, nochor" degan ma'noni bildiradi.

Qirq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibiga kirgan eng yirik qabilalardan biridir. Qirq - etnooykonim.

Qoraariqmitan - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Mitan qabilasining bir shaxobchasi qoraariqmitan deb ataladi. Qoraariqmitan - etnooykonimdir.

Qorakamar - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kamar - tevaragi qir, qirsimon balandlik bilan o'raglan yarim xalqa botiq, tokchasimon shakldagi joy, xalq ob. Qorakamar - tevaragi yolg'iz do'ngliklar bilan o'raglan kamar.

Qorakesak - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Kesak umumturkiy etnonim. O'zbeklarning qipchoq qabilasi tarkibidagi qoraqipchoq, tuyoqli shaxobchasining qorakesak, mullakesak, mirzakesak; qirg'izlarning juukesak, kesak; qozoqlarning argin va olchin qabilalari tarkibida qorakesak; boshqirdlarning tarkibida ham kesak degan urug' bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda kesey so'zi "urug'ning bo'lingan, kesilgan qismi" ma'nosidadir.

Qoratepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qora so'zi tepa so'zi bilan birikkanda rang ma'nosini bildirmaydi. Tepalarning tik va en ko'lamini ifodalaydi.

Oqtepa - balandroq tepa, Qoratepa - pastroq tepa. Qoratepa aholi punktlaridan yiroqda, ba'zan tog' etaklarida bunyod etiladi.

Qoraqursoq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'iroq qabilasi vaxtamg'ali bo'limining bir urug'i qoraqursoq deb atalgan. Qoraqursoq - etnooykonimdir.

Qoraqo'ng'iroq - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limiga qarashli 16 urug'ining biri - qoraqo'ng'iroq. Qoraqo'ng'iroq - etnooykonimdir.

Qorovultepa - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Yirik aholi punktlari atrofida, kata yo'llar bo'yida tashqi dushman haqida xabar berish uchun qorovullar turadigan tabiiy va sun'iy balandlik; qadimiy qo'rg'on harobalari.

Quvvat - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbeklarning qipchoq, qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibida quva (quba) urug'i mavjud. So'zdagi -t qo'shimchasi chidamlilikni ifodalagan. Quvvat biror mavjudodning jismoniy ish yoki harakat qobiliyati, kuch, energiya; bir vaqt ichida bajariladigan ish miqdori; korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari majmui; chidam, moddiy imkoniyat, boylik, qurb, qobiliyat, layoqat; bilim, malaka, dalda, madad.

Qulchabiy - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Toponim qulcha (n)-biy qismlaridan tashkil topgan. Qipchoqsaroy urug'ining bir **tarmog'i** qulchan deb atalgan. Biy so'zi qabilaning boshlig'i, to'rasi; yuqori mahsabli kishiga berilgan unvon; oqsoqol. Nayman qabilasi tarkibida biya urug'i bor.

Qulchabiy - qulchan urug'I oqsoqoli bunyod etgan qishloq.

Qum - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Qattiq minerallarning, asosan, kvartsning sochiluvchan mayda donalari va ularning to'plami - Qumdir. Qum bilan qoplangan joy, qumloq ma'nolariga monand joy nomlari boshqa tumanlarda mavjud.

Quralas - Bulung'ur tumanidagi qishloq. O'zbek qavmlari tarkibida quralas - guralas urug'i nomi tilga olinadi. Quralas turklashgan mo'g'ul qabilalaridan biri hisoblanadi. Quralas - etnooykonimdir.

Qo`ng`irot - Bulung`ur tumanidagi qishloq. O`zbeklar, qozoqlar va boshqa turkey xalqlar tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri qo`ng`irot deb ataladi. Qo`ng`irot - etnooykonimdir. Shu etnonim bilan bog`liq Bulung`ur tumanida Qoraqo`ng`irot nomi bor.

Hotam - Bulung`ur tumanidagi qishloq. Hotam - saxiy, saxovatli, oliyjanob. Hotam nomli afsonaviy shaxsning nomi.

Xulosa

Tuman bo'yicha boshqa barcha qishloq nomlari o'rganilib chiqildi va ularning nomlanishi bevosita shu joyning geografik, tarixiy va etnotoponomik, oronomik, gidronomik va urug nomlari bilan bogliq ekanligi aniqlandi. Ammo tuman toponomik komissiyasi tomonidan ishchi guruhga yangi nomlar berish va qayta nomlash bo'yicha takliflar berilmadi. Shuningdek, komissiya Bulung'ur shahridagi ko'chalarga qo'yilgan yangi nomlar yozilgan (tablichka) panochalar, QFY va qishloq joylariga kirish va chiqishda nomlarni qo'yish masalalari xanuzgacha oxiriga yetmagan. Olib borilgan kuzatuvlar hamda tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tashkilotlarda nomlari o'zgartirilgan ko'chalar, qishloqlar, MFY tomonidan berilgan ma'lumotnomalar asosida eskicha nom bilan rasmiylashtirish xolatlari kuzatildi. Jumladan, tuman IIB ma'lumotlarida «Mayna Xasanova» ko'chasi (hozirda Spitamen nomiga qo'yilgan), tuman elektr tarmoqlari korxonasida «Ulug'bek s-z Stalin» qishlog'i (hozirda Chantal), tuman gaz idorasida «Inqilob, U.Rasulov, Mirsharapov, O'zbekiston 60 yilligi, Obuvnoy» kabi eski nomli ko'chalar nomlari aynan saqlangan holda 2007 yil oxiri 2008 yil sanalari bilan yozilmoqda. Bundan tashqari, Bulung'ur shahridagi aksariyat ko'chalardagi ko'cha nomi ko'rsatkichi yo'q. Aholidan ko'chalarning hozirgi nomlari so'ralganda bilmasligini, hatto oshxona, dorixona va do'kon egalari ham ko'chani nomini bilmaydi. Tanishuv jarayonida tuman toponimlarini o'rganish barobarida xali ushbu masalada qilinishi lozim bo'lgan ancha ishlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan 2008 yil tuman hokimi tasdig'i bilan komissiyaga taqdim etilgan Bulung'ur shahridagi X.Yo'ldoshev., X.Rizayev, S.Ibragimov, E.Uzoqov, E.Yunusov, X.Jo'rabekov, J.Oqboyev, N.Jo'rayev, O.Shomuradov, A.Allanazarov, Esonturdiyev, E.To'raqulov singari 15 dan ortiq kishi nomi tuman asoschisi izohi bilan tavsiya etilgan. Ushbu nomlar viloyat toponomik komissiyasining 1990 yil 29 martidagi №21/ 4 qarori bilan tasdiqlangan. Holbuki, ularning hammasi ham respublika miqyosida shaxslar bo'lgan yoki bo'lmaganligi bizga qorong'u. Tumanning ba'zi qishloq fuqorolar yig'inlari hududida Kalqishloq, Janjal,

Chuvulloq, (Kildon QFY), Cho'chqato'p, (Navoiy QFY), Fayir, Devonatepa (Kulchabiy QFY), Kalto'ba (F.Yo'ldosh QFY hududida) singari salbiy ma'no kasb etuvchi hamda Kildon QFY da Xolmurod, Xotam kabi noma'lum bo'lgan kishilar nomi, Sho'ro (Sohibkor QFY) qishloq nomlari mavjudligi bu borada tezkorlik bilan ularni almashtirishni taqozo etadi.

Ayni paytda qishloq yoki mahalla fuqorolik yig'inlarining Eson Turdiyev, Oxunboboyev, M.Xayitov, X.Jo'raboyev, R.Isoqov, Esonturdi singari vatanimizga xizmati noma'lum yoki sho'ro mafkurasiga xizmat qilgan kishilarning nomlari bilan atalishi bugungi kun talabiga umuman javob bermaydi. Shuningdek, tuman markazida sobiq Shkolnaya ko'chasi M.Xasanova (milliy qahramon izohi ostida viloyat toponomik komissiyaning 1990 yil 29 martdagi №21/ 4 qarori bilan tasdiqlangan), sobiq Sovetskaya ko'chasi 1-pereulog A.Nabiyev (Ozodlik kurashchisi izohi ostida viloyat toponomik komissiyasining 1990 yil 29 mart №21/ 4 qarori bilan tasdiqlangan) nomlari bilan atalishini ham tushunish qiyin. Xatto tuman hududidan oqib o'tuvchi kanalning «Lenin yo'li» nomi bilan xanuzgacha yuritilishini qanday izohlash mumkin. To'g'ri, biz yuqorida tilga olgan joy nomlarining ayrimlarini o'zgartirish to'g'risida qishloq hamda mahalla fuqoro yig'inlari tomonidan tavsiyalar berilgan. Lekin tuman komissiyasi bizgacha faoliyat ko'rsatgan ko'maklashuvchi guruh tomonidan ko'rib chiqilmaganligi bois tasdiq uchun viloyat hamda respublika komissiyasiga taqdim etilmasdan qolib ketgan.

TAKLIFLAR.

1. Joy nomlarini qayta nomlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik hamda tarixiy joy nomlarini tiklash maqsadida komissiyaga taqdim etilayotgan nomlar obdon o'ylab ko'rilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. Kishilarning nomlarini berish uchun respublika toponomik ob'ektlarga nom berish komissiyasi tomonidan me'yor ishlab chiqilsa ayni muddaodir. Chunki, u har xil tushunmovchilik va norozichilikka chek qo'ygan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T., 2008.
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимий туркий тил. - Т.: «Ўқитувчи», 1982.
4. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. - Т.: «Ўқитувчи», 1994. -427-б.
5. Барков А.С. Табиий географиядан изоҳли лўғат. - Т.: 1958. 331-б.
6. Бафаев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. - Т.: «Фан», 1991.
7. Бегимов О. Тошкент вилоятининг қадимий эроний топонимлари хусусида // Тошкент шаҳри ва вилояти топонимлари муаммолари. - Т.: 1994. 69-70-б.
8. Боймуродов Н., Хуррамова Қ. Ўзбекистон топонимларининг ясашишида халқ терминларининг роли // «Ономастика Узбекистана». - Т.: 1989. 21-23-б.
9. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лўғати. - Т.: «Ўқитувчи», 1977. -174 б.
10. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. - Т.: «Фан», 1982. -96 б.
11. Мамедов М. Халқ номлари жой номларида. - Т.: «Фан», 1991. 48-б.
12. Машрапов Р., Қораев С. Ўзбек географик терминологиясининг манбалари //Ўзбек тили терминологияси ва тараққиёт перспективалари. - Т.: «Фан», 1986. 93-94 б.
13. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. - T.: 2008. 80 b.
14. Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлар (монография). «Тошкент», 2009. 175 б.
15. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лўғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). - Т.: «Ўқитувчи», 1988.

16. Охунов Н. Антропонимика нима? - Т.: «Ўқитувчи», 1984.
17. Қораев С. Топонимика. - Т.: 1970. -32 б.
18. Қораев С. Географик номлар маъноси. - Т.: «Ўзбекистон», 1978. 203 б.
19. Қораев С. Тошкент топонимлари. - Т.: «Фан», 1991. 64 б.
20. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. - Т.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2005. 240-б.
21. Ғуломов П.Н. Географиядан қисқача русча-ўзбекча атамалар ва тушунчалар лўғати. - Т.: Университет, 1993.
22. Ғуломов П.Н. Жўғрафия атамалари ва тушунчалари изоҳли лўғати. - Т.: «Ўқитувчи», 1994. 144-б.
23. Булунғур тумани паспорти. 2010, 2011, 2012, 2013й.
24. Булунғур туман ҳокимлиги маълумотлари. 2013й.

www.zionet.uz.

www.lez.uz.

www.google.ru.

Ilovalar

Bulung`ur tuman hokimligi tomonidan toponomik ob`ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasiga tumandagi quyidagi qishloqlarni qayta nomlash bo`yicha takliflar berlgan (ilova 1).

№	QFY, MFY, qishloq nomi	O`zgartiriladigan takliflar		
		1-taklif	2- taklif	3- taklif
1	Beshqo`ton QFY hududidagi Daradel qishlog`i	Buyuk Ipak yo`li	Vatandosh	Adolat
2	Soxibkor QFY hududidagi V. Ernazarov MFY	Guliston	A. Qodiriy	Mirzabuloq
3	Soxibkor QFY hududidagi So`ra qishlog`i	Xumo	Jamiyat	Yoshlik
4	Kildon QFY hududidagi Janjal qishlog`i	Sayiltepa	Ko`ktepa	Bulung`urariq
5	Kildon QFY hududidagi Juxuton qishlog`i	Olmazor	Shodlik	Totuvlik
6	Kildon QFY hududidagi Xolmurod qishlog`i	Beshariq	Istiqlol	Fitrat
7	Qo`ng`irot MFY hududidagi Zertosh qishlog`i	Zartosh	-	-
8	Esonturdi MFY hududidagi Cho`chqato`p qishlog`i	Bekto`p	Istiqbol	Tinchlik

Bulung`ur shahridagi ko`chalarni qayta nomlash bo`yicha takliflar (ilova 2)

№	Ko`cha nomi	O`zgartiriladigan takliflar		
		1- taklif	2- taklif	3- taklif
1	Navbahor mahallasi hududidagi A. Ikromov ko`chasi	Botu	Mutavakkil Burxonov	Mirzabuloq
2	Navbahor mahallasiga hududidagi K. Yaxshiboev ko`chasi	Qoravultepa	Shukur Xolmirzayev	Istiqbol
3	Navbahor mahallasi hududidagi U. Yusupov ko`chasi	Chavki	Said Axmad	Jizzax
4	Istiqlol mahallasi hududidagi A. Muraviyts ko`chasi	Axchambuloq	Samarqand	Abdulla Avloniy
5	Istiqlol mahallasi hududidagi N. Esonturdiyev ko`chasi	Qorabchibuloq	Komil Yormatov	Bahovuddin Naqshbandiy
6	Istiqlol mahallasi hududidagi U. Ismoilov ko`chasi	Oqtepa	Ziji Ko`ragoniy	Kamalak
7	Istiqlol mahallasi	Polvonariq	Zebinisobegim	Najmiddin

